

G'AZNAVIYLAR DAVLATI BUYUK DAVLAT.

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlatining zaiflashuv, G'aznaviy hukumdorlarning hokimiyat tepasiga kelishi, Alptegin faolyati uning hokimiyatgacha bo'lgan siyosiy yo'li, somoniylar bilan munosabatlari, Sobiqtegin hukumronlik davri, davlatning ijtimoiy iqtisodiy holati, yoritiladi.

Kalit so'zlar: Somoniylar, Alptekin, Sobiqtegin, Gazna, Qoraxoniylar, Xuroson, Amiri Sadid.

KIRISH. X asr o'rtalarida siyosiy notinchliklar va qiyin iqtisodiy holat tufayli Somoniylar davlati kuchsizlanib qoldi. Noroziliklar nafaqat oddiy xalq orasida, balki qo'shin ichida ham tarqalgan edi. Shunday og'ir sharoitda Somoniy hukmdorlari noiblariga tayanar edi. Jumladan, Gazna shahrining hokimi bo'lgan Somoniylarning eng yaxshi sarkardalaridan Alpteginning mamlakatdagi mavqei baland edi. Uning o'limidan so'ng Tutungan o'g'li Sabuqtegin (977–997) Somoniylarning kuchsizligidan foydalanib, mustaqil siyosat yurita boshladi. Keyinchalik u Qoraxoniylar bilan birgalikda Somoniylar davlatini bo'lib oldi. Mahmud G'aznaviy (997–1030) davrida G'aznaviylar davlati qudratining cho'qqisiga erishdi. U Shimoliy Hindistondan Iroqqacha bo'lgan hududlarni o'z nazoratiga oldi. Ilm-fanga katta e'tibor berdi, qurilish va me'morchilik sohalarini rivojlantirdi. Gazna shahri yirik madaniyat markaziga aylandi. Aynan Mahmud G'aznaviy keyinchalik G'aznaviylarga dushman bo'lgan saljuqiylarning mamlakat hududiga kirib yashashiga ruxsat bergan edi. Bu esa oxir-oqibat saljuqiylar va G'aznaviylar o'rtasida uzoq davom etgan urushlarga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida Somoniylar va G'aznaviylar davriga oid tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy tadqiqotlardan foydalanildi. Xususan, Somoniylar davlatining siyosiy holati, ichki nizolari va zaiflashuv sabablari haqida mahalliy hamda xorijiy tarixchilar tomonidan berilgan ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, G'aznaviylar davlatining tashkil topishi, Mahmud G'aznaviyning faoliyati va uning olib borgan siyosati haqidagi ilmiy qarashlar o'rganildi. Tadqiqot davomida manbalardagi ma'lumotlar o'zaro qiyoslanib, tarixiy voqealarning ishonchliligi va izchilligiga alohida e'tibor qaratildi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI. Maqolani yozishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, xronologik ketma-ketlik hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali Somoniylar davlatining zaiflashuvi va Gʻaznaviylar davlatining shakllanish jarayonlari yoritildi. Qiyosiy tahlil yordamida Somoniylar va Gʻaznaviylar davridagi siyosiy jarayonlar oʻzaro taqqoslandi. Xronologik metod asosida voqealar ketma-ketlikda bayon qilinib, tarixiy jarayonlarning rivojlanish bosqichlari ochib berildi. Manbashunoslik usuli orqali esa tarixiy adabiyotlar va yozma manbalar tahlil qilindi.

ASOSIY QISM. Gʻaznaviylarning hokimiyatga kelishidagi siyosiy holatlar Birinchidan, Ismoil Somoniydan keyin somoniylar orasidan har jihatdan yetuk, yuqori darajada siyosat yurgiza oladigan arbob yetishib chiqqani yoʻq. Buning oqibatida somoniylar oʻz ichki, yaʼni sulolaviy imkoniyatlaridan koʻra koʻproq mavjud siyosiy muhit qonun-qoidalariga bogʻliq boʻlib qolganlar. Siyosiy muhitni esa bu vaqtda nufuzli lashkarboshilarsiz tasavvur qilib boʻlmasdi. Gʻazna viloyatidagi kuchlar siyosiy faolligining oshishi va borib-borib alohida bir sulola darajasiga koʻtarilishi ham xuddi shunday yirik lashkarboshilar nomi bilan bogʻliq boʻlganini biz quyida yaqqol koʻramiz.

Ikkinchidan, Turkiston mintaqasida siyosiy taraqqiyotning oʻziga xos tomonlaridan biri — bu davrda xuddi madaniy hayotdagi kabi bir qator oʻziga yarasha kuchli davlat arboblarning, siyosiy sulolalarning yuzaga chiqishidir. Gap bu yerda shunday holning yaxshi-yomonligida emas, oqibatlaridan qatʼi nazar, shunday vaziyat sodir boʻlgan va bu bilib qoʻyilsa har jihatdan foydalidir. Gʻaznaviylar sulolasi qandaydir “oʻljaparastlik” ketidan emas, balki mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar muhitida yuzaga kelganligiga doir guvohliklar manbalarda yetarli darajada topiladi. Yuqorida biz somoniylar saroyida yirik lashkarboshilar tutgan mavqe haqida aytib oʻtgandik.[3,b. 113-114].

961 -yil Amiri Sadid podshohlik taxtiga oʻtirgach, lashkar unga bayʼat qildi: koʻp qarama-qarshiliklardan keyin ittifoqlik vujudga keldi. Unga bayʼat qilingan kun juma kuni, uch yuz elliginchi yil shavvol oyida (noyabr-dekabr 961) edi. (Shu vaqtda) sipohsolor Alptegin Nishopurda edi, Amiri Rashidning vafoti xabarini eshitgach, u Amiri Sadidni qoʻlga olishga qasd qildi. Amiri Sadid unga (qarshi) odam yubordi. Alptegin Jayhun daryosiga yetib kelib, undan oʻtishni moʻljallagan edi, ammo (unga qarshi) koʻp lashkar kelganligi tufayli oʻta olmadi. U oʻz viloyati Nishopurga qaytmoqchi boʻldi. (Ammo) Amiri Sadid Nishopurga, Muhammad ibn Abdurazzoqqa: “Uni Nishopurga kirishga qoʻymanglar!” — deb xat yozdi. Alptegin bundan xabardor boʻlgach, Nishopurga bora olmasligini bilib, Jayhun suvi hamda Omuydan oʻtib, Balxga bordi va Balxni olib qarshilik zohir qildi. Amiri Sadid Ashʼas ibn Muhammadni yubordi, u Alpteginga qarshi koʻp urush qilib, oxiri uni Balxdan chiqardi. Alptegin Gʻaznaga ketdi. Ashʼas ibn Muhammad ham uning ketidan Gʻaznaga bordi, u yerda ham urush qildilar. Alptegin ikkinchi marta Ashʼasdan yengilib qaytib, Balxga qarab qochdi. Koʻp qarama-qarshilik va urushlardan

keyin Amiri Sadid unga yana omonlik berdi va u xizmatga keldi. Shu vaqtlarda Amiri Sadid viloyatlarga ko'p lashkar yuborib, mamlakatni (dushmanlardan) tozaladi; viloyatda (taxt uchun) nizo qiluvchi kishi qolmadi. Amiri Sadid Daylamiylar viloyatini olib sulh tuzdi: daylamiylar har yili Amiri Sadidga bir yuz ellik ming Nishopur dirami to'laydigan bo'ldilar.[1,b. 54].

Alptegin 963-yil G'azna shahrini va viloyatini egallaydi. Mazkur hududda u G'azna davlatiga asos soladi (bu tarixda G'aznaviylar davlati deb nomlanadi). Shu yilning o'zida Alptegin Bust viloyati va qisman Kobul viloyatiga tegishli yerlarni ham egallaydi." Alptegin o'limidan keyin (963-yil) G'aznada birin-ketin bir necha turk harbiy sarkardalar hukmronlik qilgan. Alptegindan so'ng G'azna uning o'g'li Abu Ishoq Ibrohimni sulolaviy boshqaradi. 966-yilda Abu Ishoq Ibrohim vafotidan so'ng G'aznada turk qo'shinlari Alptegining g'ulomi bo'lgan o'zlarining boshlig'i Bilgateginni hokim qilib tayinlaydilar. U 10 yil hukmronlik qiladi. Bilgategin 975-yilda vafot etadi, so'ng uning o'rniga Alptegining g'ulomlaridan Piri yoki Piritegin (Bo'ritegin) o'tiradi.

977-yilda hokimiyat Sabuktegin qo'liga o'tadi va shu yil u o'zini G'azna amiri deb e'lon qiladi. Shu o'rinda eslatib o'tish kerak-ki, ba'zi manbalarda Sabuk-Tegin Barxon nomli turk qabilasidan bo'lganligi qayd etiladi. U bolaligida asir olinib, bir necha yillar tuxsi qabilasi kishilarining chorvasini boqgan ekan. Ammo tarixiy manbalarda Barxon nomli qabila eslatilmaydi. Lekin issiqko'lining janubidagi shaharlardan birining nomi Barxon (Barxan) deb bo'lgan. Sabuktegin davrida G'azna davlati bir muncha kuchayadi. U dastlab Gardiz, Parvon, Qobul, So'k va boshqa shaharlarni bosib olib mulklarini kengaytirdi. Sabuktegin bosqinchilik siyosatini olib borib, bir necha marotaba Hindiston hududiga harbiy yurish qiladi. U o'zining yigirma yillik hukmronligi davrida G'aznaviylar saltanatining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga harakat qiladi. Ammo Sabuktegin amir unvoni bilan somoniylar davlatiga tobe bo'lib qolaverdi. Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Mas'ud devonxonasida xizmat qilgan tarixchi olim Abul Fazl Bayhaqiy "Mas'ud tarixi" kitobida yozishicha, Sabuktegin jang jadallarda va tinch paytlarda shijoati, halolligi, adolatli ish tutishi tufayli navkarlikdan bosh qo'mondonlik – sipohsolorlik darajasigacha yetadi.[2,b. 40].

Sabuqtakin vafotidan so'ng hokimiyat tepasiga uning katta o'g'li Mahmud kelishi kerak edi. Ammo ota taxt vorisligini kichik o'g'li Ismoilga vasiyat qilgan edi. Ismoil taxtni atigi yetti oy boshqardi, xolos. Tabiatan betadbir, kaltafahm, takabbur va landovur bo'lgan taxt vorisi viloyat hokimlarining isyon va xurujlariga bardosh bera olmadi. Bundan foydalangan Mahmud katta qo'shin bilan G'aznaga bostirib kirib, taxtni egalladi. U tarixda Mahmud G'aznaviy nomi bilan shuhrat qozondi va G'aznaviylar sulolasiga asos soldi.[4,b. 192].

XULOSA G'aznaviylar davlatining vujudga kelishi Alptegin va Sabuqtakin faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Alptegin G'azna shahrida mustaqil hokimiyat asoslarini

yaratgan bo'lsa, Sabuqtakin uning siyosatini davom ettirib, davlat hududlarini kengaytirdi va markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Ularning sa'y-harakatlari natijasida G'azna yirik siyosiy markazga aylandi hamda keyinchalik Mahmud G'aznaviy davrida qudratli imperiyaga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Shunday qilib, Alptegin va Sabuqtakin davri G'aznaviylar davlatining shakllanish va yuksalish bosqichi sifatida Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. Бухоро тарихи.
2. Alimova R. R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (O'rta asrlar). – T.: ToshDSHI, 2013. – 180 b.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 368 б.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.